
MEHNAT JAMOALARDA BAYRAM TADBIRLARI BO'LIB O'TMOQDA

Shu kunlarda eng ulug' va eng aziz bayram-davlatimiz mustaqilligining 32 yilligi tantana qilinmoqda. Ushbu bayram "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida har bir oila va xonadon, qishloq va mahallalarda misli ko'rilmagan shodiyona ostida nishonlanmoqda.

Sana munosabati bilan Toshloq tumanidagi korxonalar va tashkilotlarda, muassasalarda bayram tadbirlari o'tkazilmoqda.

Bugun tumandagi "Turon" to'yxonasida Toshloq tumani elektr ta'minoti korxonasi mehnat jamoasi uchun bayram dasturxonasi yozildi. Unda mehnat jamoasi, uzoq yillar samarali mehnat qilgan faxriylar taklif qilinib, ularga hurmat e'tibor ko'rsatildi.

Tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev so'zga chiqib, ishtirokchilarni mustaqilligimizning 32 yilligi bilan samimiy muborakbod etdi. Mustaqillik yillarida sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hususida to'xtalib o'tdi. Shundan so'ng, korxonada namunali mehnat qilganlar hamda faxriylar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Bayram tadbirida yangragan kuy va qo'shiqlar barchaga yaqori kayfiyat bag'ishladi.
2023-08-31 20:21:10